

UDK: 39.308

PAXTAOBOD UYG'URLARI TURMUSH TARZINING LOKAL VA
UMUMINTAQAVIY JIHLARI

R.S.Ataxanov,

*Qo'qon universiteti Andijon filiali t.f.f.d (PhD), dotsenti*ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-1506-6397>

O. A. Voitova,

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18486818>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi Andijon viloyati Paxtaobod tumani uyg'urlarining tarixiy taqdirlari, ularning mazkur hududlarga ko'chib kelishi va o'rnashishlari natijasida tashkil topgan qishloqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Asosiy e'tibor uyg'urlarning mahalliy o'zbeklar orasida o'zaro etnomadaniy jarayonlarda faol ishtirok etishi hamda milliy o'zlikni anglash masalalariga qaratilgan. Xususan, paxtaobod uyg'urlarining kundalik turmush tarzi, xo'jalik mashg'ulotlari jumladan, uyg'ur etnik jamoalarining til xususiyatlari va moddiy madaniyatining ayrim jihatlari etnologik nuqtai nazardan tavsif va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Uyg'ur, etnos, migratsiya, assimilyatsiya, etnomadaniyat, qishloqlar, etnik jamoalar, atkanchay, oq choy, otush, xo'jalik, madaniyat.

Аннотация. В данной статье представлена информация об исторической судьбе уйгуров Пахтаабадского района Андижанской области Ферганской долины, а также о деревнях, образованных в результате их переселения и расселения в этих районах. Основное внимание уделяется активному участию уйгуров в этнокультурных процессах среди местных узбеков, а также вопросам национального самосознания. В частности, с этнологической точки зрения описаны и проанализированы повседневный образ жизни, хозяйственные занятия пахтаабадских уйгуров, в том числе языковые особенности и некоторые аспекты материальной культуры уйгурских этнических общин.

Ключевые слова. Уйгур, этнос, миграция, ассимиляция, этнокультура, село, этнические общности, атканчай, ак чай, отуш, хозяйство, культура.

Abstract. This article provides information on the historical fate of the Uyghurs of the Paxtaobod district of Andijan region in the Fergana Valley, as well as the villages formed as a result of their migration and settlement in these areas. The main focus is on the active participation of Uyghurs in ethnocultural processes among local Uzbeks, as well as issues of national self-awareness. In particular, the daily lifestyle, economic activities of the Pakhtaabad Uyghurs, including the linguistic features and some aspects of the material culture of the Uyghur ethnic communities, have been described and analyzed from an ethnological perspective.

Keywords: Uyghur, ethnicity, migration, assimilation, ethnoculture, village, ethnic communities, atkanchay, ak chay, otush, farming, culture.

Kirish. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat hisoblanib, bu joyda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib kelmoqda. Mazkur millat va elatlar yagona o'zbek xalqini tashkil etadi. Jumladan, uyg'urlar ham O'zbek xalqining tarkibiga kiruvchi kam son sonli etnoslardan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda 50000 ga yaqin uyg'ur millati vakillari ro'yxatga olingan bo'lib, ular umumiy aholining 1% dan ham ozroq qismini tashkil etadi [1].

Uyg'urlar asosan Xitoy davlati hududida istiqomat qilib kelayotgan alohida millat hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Xitoydagi uyg'urlarning umumiy soni taxminan 11 mln. kishi deb qayd etilgan [2].

Uyg'urlarining asl vatani tarixan Sharqiy Turkiston, rasman Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni hisoblanadi. Bu hudud Farg'ona vodiysiga yaqin joylashgan bo'lib, qadimdan ikki mamlakat o'rtasida o'zaro etnomadaniy aloqalar rivojlanib kelgan. Mashhur «Buyuk ipak yo'li» bir vaqtlar ushbu hududlardan o'tganligi bois, tabiiy-ki mazkur xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq va iqtisodiy-siyosiy munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysi qadimdan etnik jarayonlar tig'iz kechgan polietnik hudud hisoblanadi. Bu hududda mahalliy o'zbeklar bilan bir qatorda tojik, uyg'ur, qirg'iz, qoraqalpoq, rus, tatar va boshqa millat vakillari uzoq yillardan buyon o'zaro etnomadaniy aloqalarda faol ishtirok etib kelganlar. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi Uyg'ur qishlog'i va u yerda yashovchi aholining tarixi Farg'ona vodiysining etnik shakllanishida o'ziga xos o'ringa ega.

Uyg'urlar taqdir taqozosi bilan o'z vatanlaridan tashqarida, jumladan O'zbekistonning bir necha hududlarida xususan, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati va Toshkent shahri hududlarida istiqomat qilib keladilar. O'zbekistonda uyg'ur etnik jamoalarining uchta guruhi yashaydilar. Ular Qashg'arliklar, Taranchilar va Do'lon etnik jamoalari hisoblanib, Farg'ona vodiysining Andijon viloyati Paxtaobod tumanida Uyg'urlarning qashg'arlik etnik jamoalari joylashgan.

O'zbekistonda taxminan ellik mingdan ortiq uyg'ur millati vakillari yashab keladi. Biroq ta'kidlash kerak-ki, assimilyatsiya jarayonlari tufayli o'zlarini o'zbek deb ko'rsatuvchi ayrim uyg'urlar bilan birga hisoblaganda bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lishi mumkin. Shuningdek, sovet davrining o'ziga xos milliy mafkurasi ostida olib borgan milliy siyosati ham ushbu dinamikaga ta'sir etgan bo'lishi mumkin. Migratsiya jarayonlari natijasida ko'chib kelgan ayrim uyg'urlar uy-joy, ish va tirikchilik manbai kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar tufayli rasmiy hujjatlarda o'zbek millatiga mansub ekanligini ko'rsatgan holatlar ham uchragan. Natijada, sun'iy ravishda o'zbeklashish jarayoni sodir bo'lgan. Chunki, uyg'urlar o'z vatanlaridagi siyosiy bo'hronlar va mojarolardan, tazyiqlardan panoh topishning yagona yo'li migratsiya ekanligini yaxshi anglaganlar va imkon qadar o'zga yurtlarda qo'nim topishni ma'qul ko'rganlar.

2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Paxtaobod tumanining doimiy aholisi 214,1 ming kishini tashkil etadi [3]. Tumanda asosan o'zbeklar yashaydi. Shuningdek, tojiklar, qirg'izlar, ruslar va tatarlar kabi boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Shu bilan birga tuman hududida 26000 dan ziyod uyg'ur millatiga mansub aholi o'zbeklar bilan yonma-yon istiqomat qilib kelmoqdalar.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Farg'ona vodiysi uyg'urlari, ularning ko'chib kelish sabablari, bosqichlari, joylashuvining o'ziga xos xususiyatlari, xo'jalik madaniy

tiplari, turmush tarzi, tili, madaniyati va mashg'ulotlari to'g'risida sovet davri hamda maxalliy o'zbek tadqiqotchilari tomonidan ancha o'rganilgan.

Xususan, O'zbekistondagi uyg'urlariga oid ma'lumotlar Ch.Ch.Valixanov, A.N.Kuropatkin, V.Nalivkin, M.Nalivkina, Ya.Vinnikov, L.A.Chvir, S.S.Gubaeva, SH.Inog'omov kabi tadqiqotchilarning asarlarida keltirilgan [4]. Shuningdek, A.Pisarchik, I.Zaxarova, M.Axmedov U.Abdullaev, I.Xo'jaxonov va boshqa ko'plab olimlar tomonidan ham uyg'urlar to'g'risida samarali ilmiy ishlar olib borilgan.

So'nggi yillarda, Farg'ona vodiysidagi uyg'urlar haqida G.Valixonovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega [5]. Ushbu muallif o'z ishida vodiy uyg'urlarining oilaviy maishiy turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyatdagi ayrim jihatlari, uyg'ur urf-odat va marosimlar kabi masalalarga e'tibor qaratgan. Shuningdek uyg'urlarning diaspora sifatidagi o'rni, uning O'zbekiston va umuman, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari bilan munosabatlari masalasi ham ko'plab mahalliy o'zbek olimlari va siyosatchunoslari tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Natijalar va muhokama. Ta'kidlash joizki, uyg'urlar XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Sharqiy Turkistonda kechgan siyosiy jarayonlar natijasida ayrim uyg'ur etnik guruhlarining malum bir qismi O'rta Osiyoning asosan ikki mintaqasi – Yettisuv o'lkasi va Farg'ona vodiysi hududlariga ko'chib o'tganlar. Migratsiya jarayonlari natijasida Farg'ona vodiysida ko'chib kelgan uyg'urlarning bir qismi Andijon viloyatining Paxtaobod tumani hududining qo'shni Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan g'arbiy qismida o'zlarining bir nechta qishloqlarini barpo etganlar. Uyg'urlarning joylashish jihatidan Paxtaobod tumani uyg'urlari yetakchi hisoblanib, ular mazkur hududda g'uj bo'lib o'rnashganlar. Paxtaobod tumani chegara hududda joylashgani sababli, ko'chib kelgan aholining katta qismi aynan shu yerda qo'nim topgan. Bu yerdagi aholini mahalliy xalq orasida "qoshg'arliklar" yoki "kelgindilar" deb ham atashgan, "uyg'ur" atamasi keyinchalik etnik nom sifatida mustahkamlangan. Ko'chib kelgan uyg'ur etnik jamoalari o'zlari bilan birga yuksak dehqonchilik madaniyati ayniqsa, sabzavotchilik, sholichilik va bog'dorchilik, milliy taomlar va o'ziga xos hunarmandchilik an'analari olib kelishgan.

Paxtaoboddagi uyg'urlarning aksariyati aslida Sharqiy Turkistonning (hozirgi Xitoyning Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni) **Qoshg'ar, G'ulja** va **Otush** hududlaridan ko'chib kelganlarning avlodlari hisoblanadi. Ayni paytda Paxtaobod tumani Uyg'ur qishlog'i o'ramida bir nechta uyg'ur mahallalari bo'lib, ular **Otush, Sho'riq, Paynob, Pushmon, Soy, To'qqizbog' va Janjal** nomi bilan atalib kelinadi. Ushbu nomlar bilan yuritilib kelinayotgan qishloqlar ilmiy adabiyotlarda To'qqizbog' – *To'qqizoq*, Sho'riq – *Shovruq* kabi nomlar bilan ham ifodalangan. Fikrimizcha, buning asosiy sababi turli axborotchilardan olingan ma'lumotlardagi og'zaki talaffuzdagi farq bo'lishi mumkin. Buning ustiga mustaqillikdan keyingi yillarda ko'plab mahalla va ko'chalarga zamonaviy nomlarning berilishi va oqibatda keyingi yosh avlod xotiralarida azaliy nomlarni unutilib borishi bilan ham bog'lash mumkin.

Uyg'ur qishlog'ida tug'ilib o'sgan jamoatchi jurnalist Gulnoza Soqieva Mirzabaxromovna o'z millatdoshlarining tarixiy taqdirlari, ularning turmush tarzi, xo'jalik yuritish an'analari va milliy-etnik xususiyatlari to'g'risida hamda Paxtaobod uyg'urlarining boshqa yurtlardagi uyg'urlar bilan o'zaro aloqalarini mustahkamlashga jonbozlik ko'rsatayotgan faol fuqarolaridan biridir. G.M.Soqievaning xizmatlari tufayli Paxtaobod uyg'urlari to'g'risidagi ko'plab ma'lumotlar rasmiy matbuotda, ijtimoiy tarmoqlarda yoritilib kelmoqda. Ushbu muallifning aytishicha: *"Uyg'ur qishlog'i Otush, Sho'riq va To'qqizbog' kabi mahalla nomlarini ularning tarixiy vatanlarini anglatuvchi geografik bog'liqlikni isbotlovchi ma'lumot sifatida qarash maqsadga muvofiqdir"*. Binobarin, ushbu etnotoponimlar uyg'urlarning etnik identikligini ko'rsatuvchi jihatlarini namoyon etadi. O'zlikni anglash esa muayyan etnosga xos bo'lgan nomlarni, an'ana va urf odatlarni saqlashda o'z aksini topadi. Jumladan, insonlar o'z yurtini tark etishga majbur bo'lib, yangi joyda o'zlarini begona his qilmaslik va vatan sog'inchini hissini xotiralarida saqlash uchun ko'chib o'tilgan joylarga ma'lum bir urug'ning yoki xalqning nomini berganlar. Chunonchi, **Otush** nomi Sharqiy Turkistonning Qoshg'ar viloyati yaqinida joylashgan Otush [6] shahri nomidan olingan. Paxtaoboddagi "Otush" mahallasiga asos solgan aholi aynan shu shahardan ko'chib kelganlar. Shu tufayli ham bu mahalla vakillari o'zlarini *"otushliklar"* deb atashadi. Shuningdek, **Sho'riq** — sho'rxok, tuzli yer degan ma'noni anglatib, uning ma'nosi ko'proq yerning strukturasi bilan bog'liq. Qoshg'ar atrofidagi ayrim dehqonchilik hududlarida yer tuzilishi sho'rxok bo'lgan. Paxtaobodga kelgan aholi o'z yurtidagi shu nomni qishloq xotirasi bilan "Sho'riq" deb atagan bo'lishi mumkin [7]. Aslida, hozirgi vaqtda Xitoy Respublikasi Uyg'ur avtonom hududi Shufu u'ezdida **To'qqizozq posyolkasi** mavjud [8]. Sharqiy Turkistonda xususan, Qoshg'ar va G'ulja atrofida hududlarni "bog'" deb atash an'anasi ham mavjud, shuning uchun Yettibog', Sakkizbog' kabi nomlarni bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. "To'qqizbog'" — to'qqizta katta bog' yoki to'qqizta oila tomonidan barpo etilgan bog'zor ma'nosini anglatishi mumkin.

Bugungi kunda Paxtaoboddagi uyg'urlar hayoti o'zbek xalqi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ularning kundalik turmush tarzi an'anaviy urf-odatlarini mahalliy o'zbeklar bilan uyg'unlashib ketgan. Ilmiy adabiyotlarda berilgan ma'lumotlardan ma'lum-ki, Farg'ona vodiysi Andijon viloyatining Shaxrixon, Oltinko'l hamda Andijon shahrida ham bir necha ming uyg'ur millati vakillari istiqomat qiladilar. Ammo, Paxtaobod uyg'urlari Farg'ona vodiysida joylashgan boshqa uyg'ur jamoalaridan farqli ravishda milliy o'zligini nisbatan yaxshi saqlab qolganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, uyg'ur moddiy madaniyatidagi etnik jihatlar Paxtaobod uyg'urlarida ustuvorlik kasb etishi yaqqol ko'rinib turadi. O'zbek etnik muhitida uyg'urlarning madaniy identiklik masalasi ko'rsatkichi bo'yicha olingan sotsiologik so'rovnoma ma'lumotlarida quyidagilarni ko'rish mumkin: o'z ona tilini bilishlik darajasi bo'yicha aholining qariyb 30%, a'lo,

66.7% yaxshi darajada, tarixi va madaniyatini bilishlik darajasi 55,6%, nikoh marosimlari 88,9%, uygʻur milliy kuy va qoʻshiqlarini bilish darajasi 48,2% ni tashkil etadi [9].

Taniqli etnolog olimi S.S.Gubaeva oʻz asarlarida Paxtaobod uygʻurlari haqida fikr yuritib: “XX asr boshlarida Paxtaobod tumanida joylashgan kekxa yoshdagi uygʻurlar vodi hududidagi boshqa uygʻurlardan farqli ravishda sof uygʻur tilida soʻzasha olishi va xatto oʻzbek tilini bilmasliklarini va bu hududda oʻzlikni anglash yaxshi saqlanganligini qayd etgan edi” [10]. Garchand oradan qariyb bir asr oʻtib, bu davr mobaynida assimilyatsiya jarayonlari jadal kechgan boʻlsa-da, tadqiqotchi S.S.Gubaevaning fikrlari hozirda ham oʻz ahamiyatini butunlay yoʻqotmagan. Haqiqatan, Paxtaobod uygʻurlari kundalik turmush tarzida, oʻzaro muloqotlarida uygʻur tilining oʻzbekcha aralash variantidan foydalanadilar. Albatta, inoetnik muhit va tillararo differentsiatsiyasi ikki tilli hodisasini kelib chiqishiga sabab boʻlgan. Biroq, tumanlar miqyosida tahlil etilganda Paxtaobod uygʻurlari oʻz ona tillarida muloqot qilishi va nisbatan yaxshi bilishlari aniqlangan. Oʻtgan asrning 20-30 yillarida vodiya bir nechta uygʻur tilini oʻrganishga ixtisoslashgan taʼlim muassasalari xatto pedagogika texnikumlari tashkil etilganligi va unda minglab oʻquvchilar oʻqiganligi qayd etilgan [11]. Taassufki, ushbu taʼlim muassasalari 1980 yillardan boshlab, kamayib bordi va oʻzbek tiliga oʻta boshladi.

Bugungi kunda Paxtaobod uygʻurlari anʼanaviy urf-odatlarini va marosimlarini yaxshi saqlagan hudud sifatida tilga olinadi. Maʼlumotlarga koʻra, Paxtaobod uygʻurlari moddiy va maʼnaviy madaniyati xususan, uy-joy qurilishi, kiyimlari, taomlari bilan bogʻliq munosabatlarda shuningdek, inson tugʻilishi, xatna va nikoh toʻylari va oʻlim bilan bogʻliq urf-odatlarini va marosimlarda lokal hamda umumintaqaviy jihatlar yaqqol namoyon boʻladi. Uygʻurlarni mashxur qilgan narsa bu ularning taomidir. Uygʻur taomlari oʻzining mazasi va sifati bilan yurtimizning barcha oshxonalarini taomnomasidan oʻrin olib ulgurgan. Uygʻurlar tabiatan xamirli taomlarning ustasi boʻlib, ular tomonidan tayyorlangan turli nomdagi taomlar nafaqat Oʻzbekiston balki Markaziy Osiyoning barcha xoʻrandalari sevib isteʼmol qiladilar. Uygʻur milliy taomlari oʻzining xilma-xilligi, toʻyimliliigi va oʻziga xos ziravorlari bilan dunyoga mashhur. Paxtaobod va Uygʻur qishlogʻida bu taomlar haligacha qadimiy retseptlar asosida tayyorlanadi. Uygʻur taomlarining mazali chiqishining siri — yogʻda qovurilgan achchiq qalampir va sarimsoqpiyoz aralashmasidan tayyorlangan qorishma hisoblanadi. Bu ziravorsiz birorta uygʻur taomini tasavvur qilib boʻlmaydi.

Uygʻurlarda **Atkanchay (etken-chay)** eng keng tarqalgan ichimlik boʻlib, qadimdan mashhur boʻlgan. Bu ichimlik uygʻurlarning *"tashrif qogʻozi"* hisoblanadi. Mahalliy aholi bu ichimlikni **"Oq choy"** deb ham atashadi. Bu choy sutli shoʻr choy sifatida unga qoʻshilgan ingredientlar tufayli yengil taom oʻrnini ham bosgan. “Etken” choy tayyorlanishiga koʻra, uning tarkibiga dastlab suv qaynatib olinib, unga birma bir nisbatda sut, jizza, tuz, ozroq murch va qaymoq yoki sariyogʻ qoʻshilgan. Toʻylar va marosimlardan oldin oqsoqolllar uni tuzini totib berganlar, shundan soʻnggina taom dasturxonga tortilgan. “Etken” choyga qora yoki koʻk choy qoʻshilgan. Paxtaobod

uyg'urlari esa asosan ko'k choy qo'shishni xush ko'radilar. "Etken" choy udumi ayni vaqtda faqatgina Paynob qishlog'ida tayyorlanadi xolos. Chunki bu yerda Qashqardan ko'chib kelganlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Bu qishloq aholisi "Etken" choy marosimini an'anaviy marosim sifatida qaytadan tiklab uni yanada kengaytirayotganligi tahsinga loyiq. Paynob qishlog'i to'ylarida xatmi qur'on o'qilishidan oldin "Etken" choy tortiq qilish ommalashgan. "Etken" choy ayollarning "soqit" marosimida ham tanovul qilingan. "Etken" choydan keyin barchaga umumiy osh ulashilgan. Xalq orasida *"atkan chay ichmisak beshimiz agriydu"* degan naql yurishi bejiz emas.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkin-ki, Farg'ona vodiysining polietnik tarkibi bu hududda turli etnoslararo aloqalarning jadal kechishini ta'minlagan. Jumladan, Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan uyg'urlar ham bu jarayonda faol ishtirok etgan. Buning natijasida Farg'ona vodiysida bir nechta uyg'ur qishloqlari paydo bo'lib, ular mintaqaning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga, demografik holatiga o'z hissasini qo'shdi. Jumladan, Paxtaobod uyg'urlari ham inoetnik muhitda mahalliy o'zbeklar bilan birgalikda yashab transformatsiya jarayonlari natijasida an'anaviy madaniyati turmush tarzining o'ziga xos jihatlarini rivojlantirishga, shuningdek millatlararo munosabatlarni, tolerantlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga o'z hissasini qo'shdi.

Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidagi uyg'urlar nafaqat o'zining mehnatsevarligi, balki ilm-fan, san'at va adabiyotga fidoyiligi bilan ham tanilgan. Bu yerdan ko'plab ziyolilar, shoir va yozuvchilar, xofizlar, olimlar davlat va jamoat arboblari yetishib chiqqan. Qishloqda milliy san'at va raqs "Otush" ansambli tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyati bilan an'anaviy uyg'ur kuy va qo'shiqlari ijro etib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistondagi uyg%CA%BBurlar>
2. <https://www.google.com/search>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
4. Valixonova G.K. Farg'ona vodiysi uyg'urlarida an'anaviy va zamonaviy etnointegratsion jarayonlar AR.Toshkent 2018. - B. 6-8.
5. Valixonova G.K. Farg'ona vodiysi uyg'urlarida an'anaviy va zamonaviy etnointegratsion jarayonlar AR.Toshkent 2018: Farg'oan vodiysi uyg'urlari: turmush tarzi va madaniyati Toshkent 2013.
6. <https://www.google.com/search>
7. [7.https://www.google.com/search](https://www.google.com/search)
8. <https://www.globaltimes.cn/page/202302/1286336.shtml>
9. Valixonova G.K. Farg'ona vodiysi uyg'urlarida an'anaviy va zamonaviy etnointegratsion jarayonlar AR.Toshkent 2018. - B. 130, 136, 140.
10. Губаева С.С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в. Ташкент 1991. - С. 90
11. Троицкая А.Л. Из отчета о командировке 1936 г. в национальные районы Среднеазиатских Республик // СЭ – 1937. - №1 -С. 147